



TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISH METODIKASI

Qambarova Nasibaxon Ma'rufjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti
tasviriy san'at va muxandislik grafikasi yo'nalishi

2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10843809>

ARTICLE INFO

Received: 15th March 2024

Accepted: 18th March 2024

Published: 20th March 2024

KEYWORDS

Tasviriy san'at, mutaxassis, metodika, pedagog, kadr, prinsip, uzluksiz ta'lim, grafika, tasvir, natura, qalam

ABSTRACT

Ushbu maqola tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi bo'yicha bir nechta ma'lumotlarni keng bayon etadi hamda fanni o'qitish va samaradorlikka erishishda foydalaniladigan metodlarni muhokama qiladi.

KIRISH. Bugungi kunda yoshlarni ma'nan yetuk va barkamol qilib tarbiyalashda va tasavvur dunyosini kengaytirishda "Tasviriy san'at" fanining ahamiyati juda muhim hisoblanadi. Yosh avlodni barkamol, yetuk qilib tarbiyalash insoniyatning oldiga qo'yan eng muhim maqsadlaridan biri demakdir. Hozirda milliy ma'naviyatimiz hamda qadriyatlarimiz rivojini tasviriy san'at na'munalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Adabiyot san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq bezavol yashaydi!". Darhaqiqat ijodkor insondan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Tasviriy san'at bilan shug'ullanish insonlarga estetik zavq bag'ishlaydi va ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Tasviriy san'at insonlarga atrofda mavjud ranglarni xilma-xilligini ko'ra olish, dunyo go'zalliklarini his qilish uchun yaqindan yordam beradi.

Tasviriy san'at fani bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda «Tasviriy san'at metodikasi» pedagogika kollejlarda o'rganiladigan maxsus o'quv fanlardan biri bo'lib, u bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tasviriy san'atdan amaliy mashg'ulotlarda metodik jihatdan tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omilidir. Bu nazariy va amaliy mashg'ulotlar talabalarni badiiy-kasbiy bilimni, malaka mahoratini shakllantirishga hamda ularni maktab o'quvchilari va pedagogika kollej talabalariga badiiy ta'lim-tarbiya berish jarayonida qo'llashga va o'rgatishga qaratilgan. 1997-yili O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da estetik turkumdagi fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor berilgan bo'lib, xususan uning «Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari» qismida uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplaridan biri ta'limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi.

MATERIALLAR VA USULLAR. San'at atrof muhit, borliq va jamiyatdagi barcha narsalarni badiiy tasvirda ifodalanishidir. Tasviriy san'at hayotni va moddiy olamni shakllanishini aks

ettirish, insonlarga uni bildirishda muhim vosita bo'lib hizmat qilmoqda. Yosh avlodni yetuk va barkamol qilib tarbiyalash bilan bir qatorda, yoshlarga sifatli ta'lim-tarbiya berish kelajakda yurtimiz ravnaqi va taraqqiyoti uchun o'z hissasini qo'shuvchi yetuk kadrlar yetishib chiqishida muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda qaysi bir rivojlangan mamlakatni olmaylik, sifatli ta'lim-tarbiya berish maktab yoshidan boshlanadi. Shu bilan bir qatorda yoshlarga maktab yoshidan boshlab san'at va tasviriy san'atni o'rgatish mamlakatimiz oldidagi muhim vazifa hisoblanib kelmoqda. Shunday ekan bolalarni kichkligidanoq o'qishga va uqishga o'rgatib, qalbini mehr va ezguliklar bilan to'ldirib borsak, kelajakda ulardan yurtni koriga yaraydigan, o'z vatanini sevib ardoqlaydigan komil insonlar yetishib chiqadi. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holatda yoshlarni tarbiyalash jarayonida ularning qalbida tasviriy san'atga bolgan qiziqishlarini oshirish va san'atga bo'lgan mehr tuygusini yanada shakllantirish oldimizga qo'ygan maqsadga erishishda bevosita hizmat qiladi. Chunki tasviriy san'at inson qalbiga mehr uchqunini sochuvchi, insonni mehnatga, tabiatga bo'lgan qarashlarini shakllantiruvchi kuchdir. Tasviriy san'at yoshlarga estetik zavq bag'ishlaydi hamda ko'rish, idrok etish, kuzatish tasavvur qilish kabi bir qanch ongning yuksak jihatlarini oshirishga hizmat qiladi.

Olimlarimizdan biri «Tasvirlash bu kuzatish, yaratish, ixtiro qilish demakdir», deb bejiz aytmagan. Tasviriy san'at o'qituvchisi qalam tasvirdan quyidagilarni bilish talab qilinadi:

- grafika san'ati haqida nazariy ma'lumotlar;
- qalam tasvirda ishlatiladigan materiallar, ularni tayyorlash qoidalari va yo'l-yo'riqlari;
- naturadan qalam tasvirda rasm ishlashning asoslari;
- tasvir qurish qalam tasvirda perspektiv qisqarish qonuniyatlari borasidagi bilim va nazariy tushunchalar; — qalam da bajarilayotgan tasvirning kompozitsiya yechimi;
- qalamtasvirdagi ishni nihoyasiga yetkazish tajribasi va malakasi;
- qalamtasvirda qalam bilan bajarilgan ishga shakl berish yo'llari va uslublari kabi bir qator maqsad va vazifalari mavjud.

Bundan tashqari yuqoridagi ko'rsatilgan talab va qonun-qoida asoslarini mukammal o'zlashtirganda tasviriy san'at o'qituvchilari oddiy geometrik shakllardan tortib, harakatdagi odam, hayvonlar hamda tabiatning turli ko'rinishlarigacha bo'lgan jarayonlarni qalam tasvirda bajara olishi kerak.

METODOLOGIYA. O'qitishning interfaol va interaktiv usullari hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o'yinlardan foydalanish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko'rib chiqiladi. Interfaol va interaktiv o'qitish talabalardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonida faollik, ijodkorlik, mustaqillikni rivojlantiribgina qolmay, ta'lim maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bunda ta'limning quyidagi kontseptsiyalari fundamental asos bo'lib xizmat qiladi:

- pedagogning jadal faoliyati — o'quv faoliyatining asosiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lib, u mazkur harakatning sub'ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi;
- o'quv faoliyatining asosiy negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub'ekti — o'rganuvchi hisoblanadi;

- muvaffaqiyatli o`quv faoliyatining asosiy ko`rsatkichi, uning natijasi talabaning fikrlash usullarini o`rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko`nikmalarini shakllantirishdan iborat;
- o`quv faoliyatning asosiy ko`rsatkichi o`quv topshiriqlari xisoblanadi. Bunda ta`lim jarayonining asosiy sub`ekti bo`lgan talabada fikrlash, bilish harakati usullarini rivojlantiruvchi o`qitish taktikasi muhim o`rin tutadi;
- o`quv faoliyatini amalga oshirish jarayoni talabadan o`zining shaxsiy bilish mahorati va ko`nikmalarini o`zlashtirib olishi uchun zamin hozirlashdan iborat.

NATIJALAR. Tasviriy san`at o`qituvchisi fanning barcha bo`imlari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi boshqa fanlar bilan aloqalari, san'atshunoslik va gumanitar vo`nalishlari haqida aniq tasavvur hamda ularni amalda qo'llash malakasiga ega bo'lishi zarur. Pedagogika kollejlari ijodkorlarni tavyorlash bo'yicha talablar rassom-pedagoglar oldiga mazmunan yangi vazifalarni qo'ymoqda. Shuning uchun ushbu qo'llanmada o`quv dasturi asosida fan o`qituvchisi bilishi zarur bo'lgan mavzularni yoritishni maqsadga muvofiq, deb hisobladik. Eng asosiy maqsad — zamonaviy tasviriy san`at o`qituvchisi orqali yoshlarimizdagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab. Ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarish. Tasviriy san'at pedagogikasining o'ziga xos murakkabliklarini tushunib. Uning nozik qirralarini o`quvchilarga ulashish mahoratiga ega bo'la oladigan ustozlarni yetishtirib chiqarishdir. Bu borada O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning «Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilavotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi an'analarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir», degan so'zlari bilan Ma'naviyat cho'qqisiga intilishga chorlamoqda. Buning uchun ta'lim olayotgan har bir talabani san'atga moyilligini, mavjud iqtidorlik va ijodiy qobiliyatini boyitib uni amaliy. nazariy, 1 mix jihatdan shakllantirish maqsad qilingan. Ta'limning samaradorlik mezoni uning xalqaro standartlar talablariga javob berishi bilan belgilanadi. Tasviriy va amaliy san`at o`qituvchilarini shakllantirish uchun bu sohadagi barcha amaliy hamda nazariy bilimlar ta'lim sifatida zarur. Bular, asosan, qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya. amaliy bezak san'ati, haykaltaroshlik, san'at tarixi va eng asosivsi, bu bilimlarni o'rgatishning metodik asoslarini egallash hisoblanadi. Ta'lim mazmunidagi bu bilimlarni egallash vositasida bo'lajak o`qituvchi o'z sohasining ustasi bo'libgina qolmasdan, balki ana shu san'at sirlarini o`quvchilari va yoshlarga ulasha olish malakasiga ega bo'ladi. Tasviriy, amaliy san'at ta'limi va tarbiyasi mazmunida milliy san'at merosimiz bilan birgalikda umumbadiiv ta'limshunosligi va uslubiyatiga tayanish lozim. Yosh pedagog tayyorlashda ta'lim mazmunining muhim yo'nahshlari, umumbadiiy va milliy an'analarining ustuvorligiga amal qilishi darkor.

XULOSA. Xulosa o`rnida aytish mumkinki tasviriy san`at metodikasi pedagogik ilmiy fan sifatida tajribada sinalgan ishlarni nazariy qismlarini umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan o`qitish metodlarini taqdim etadi. Metodika, asosan, pedagogika, psixologiya, estetika va san'atshunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U tasviriy san'atni o'rgatish qonun va qoidalarini ta'riflab bergan holda, kelajak avlodni tarbiyalashning zamonaviy metodlarini belgilaydi. Amaliy metodika — ta'lim va tarbiyaning rivojlanish jarayonini

o'rganadi. Pedagogik mahorat ko'nikmalarini o'rganish va uni egallashga qaratilgan ma'lum iste'dod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar (mayillar) mavjud bo'lishini talab etadi, chunki tasviriy san'at pedagogikaning mashaqqatli va murakkab hamda mas'uliyatli sohasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». -T.Sharq, 1997.
2. I.A.Karimov «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». -T.O'zbekiston. 1999. 62 bet.
3. BS. Abdirasulov, B. Boymetov, N. Tolipov. Tasviriy san'at. -T.2006
4. N. U. Abdullaev. San'at tarixi. Ikki jildlik 2/1-tom. -T. 2001
5. F.Abduraxmanov .Kompozitsiya asoslari-T.2003.
7. N.Abdullayev. San'at tarixi-T.2007.
8. N.Abdullayev.O'zbekiston manzara rangtasviri.-T.1973
9. A.Nabiyev. «Tarixiy o'lkashunoslik». T. 1977
- 10.T.Mahmudov.O'zbekiston tasviriy san'atida inson omili-T.1979
11. N. Abdullayev. S a n 'at tarixi. 2 jildli, 1-jild, T., 1986.
12. B.Z. Azimova. N atyurm ort tuzish va tasvirlash. T., «O'qituvchi», 1984.
13. B.Z. Azimova. Badiiy-grafika fakultetida kurs ishi bajarish yuzasidan metoD. dik tavsiyalar. T., 1989.
14. S. Abdirasilov. Tasviriy san'at o'qitish matodikasidan amaliy niashg'ulotlarni
15. bajarish. T., 1996.
16. S.Abdirasilov. Tasviriy sa n 'at atamalari. T.. 2003